
PROFILAKTIK ISHLAR DAVOM ETMOQDA

Qo'shtepa tumanida "Koronavirus" infeksiyasining kirib kelishi va keng tarqalishining oldini olish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Birinchi navbatda, odam ko'p to'planadigan joylarda virusdan himoyalash tadbirlari ishlab chiqilib, joylarda keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, karantin davrida tumanda joylashgan "Dehqon bozori" MCHJda oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxining asossiz oshib ketishiga yo'l qo'yilmaslik bo'yicha zarur chora-tadbirlar amalga oshirilib, arzon narxda savdo yarmarkasi tashkil etilmoqda. Mas'ul idora xodimlari va SEO markazi mutaxassislari jalb qilinib, dizinfeksiyalash ishlari ham amalga oshirilmoqda.





Kasallik kirib kelishi va tarqalishining oldini olish bo'yicha profilaktik ishlar davom ettirilib, xalqimizni xushyorlikka va ogohlikka chaqirish maqsadida, yo'l yoqasiga Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan banerlar o'rnatildi.





2020-03-25 15:02:28